ILMIY AXBOROT

UDK: 37.012 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a173**

TIL O‘RGANISHDA TINGLASHNING AHAMIYATI VA TINGLAB TUSHINISH MUAMMOLARI: TIL O‘RGANUVCHILAR TAJRIBASI

ВАЖНОСТЬ АУДИРОВАНИЯ В ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА И ПРОБЛЕМЫ АУДИРОВАНИЯ: ОПЫТ ИЗУЧАЮЩИХ ЯЗЫК

IMPORTANCE OF LISTENING IN LANGUAGE LEARNING AND LISTENING COMPREHENSION PROBLEMS: THE EXPERIENCE OF LANGUAGE LEARNERS

Eshmuradov Urol Xujanovich[1]

[1]Eshmuradov Urol Xujanovich, – Qarshi davlat universiteti, Fakultetlararo Nemis tili kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Tinglash kundalik hayotda ham, akademik kontekstda ham insonlar bilan samarali muloqot qilish uchun muhim rol o‘ynaydi. Muloqot va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun tinglash muhimligiga qaramay, ko‘p yillar davomida til o‘rgatish dasturlarida unga yetarlicha e'tibor berilmagan. Tinglashni o‘rganish bo‘yicha juda ko‘p turli nuqtai nazarlar mavjud bo‘lsa-da, har bir nuqtai nazarning muvaffaqiyati til o‘rganuvchilar duch keladigan muhim muammolarni hal qilish va minimallashtirishga bog'liq. Ushbu maqola nemis tilini chet tili sifatida o‘rganishda tinglab tushunish ko‘nikmasining roli va ahamiyati bilan bog'liq tushunchalar va muammolarni o‘rganishga qaratilgan

Аннотация

Умение слушать играет важную роль в эффективном общении с людьми как в повседневной жизни, так и в учебном контексте. Несмотря на важность аудирования для развития коммуникативных и когнитивных навыков, на протяжении многих лет ему не уделялось должного внимания в программах обучения языку. Хотя существует множество различных точек зрения на то, как научиться слушать, успех каждой точки зрения зависит от решения и минимизации критических проблем, с которыми сталкиваются изучающие язык. Эта статья направлена на изучение концепций и вопросов, связанных с ролью и важностью навыков понимания на слух в изучении немецкого языка как иностранного.

Abstract

The ability to listen plays an important role in effective communication with people both in everyday life and in the educational context. Despite the importance of listening for the development of communication and cognitive skills, for many years it was not given due attention in language training programs. Although there are many different points of view on how to learn to listen, the success of each point of view depends on solving and minimizing the critical problems faced by language learners. This article aims to explore concepts and issues related to the role and importance of listening comprehension skills in learning German as a foreign language.

Kalit so‘zlar: *tinglab tushinish,omil,nutq tezligi,talaffuz, ko‘nikma*
Ключевые слова: *аудирование, фактор, скорость речи, произношение, умение.*
Key words: *listening, factor, speech speed, pronunciation, skill.*

KIRISH

Tinglab tushinish - muloqotning asosi, har qanday og'zaki muloqotni o‘zlashtirish tinglab tushinish ko‘nikmasidan boshlanadi.Bu idrok etilgan tovushlarni farqlash, ularni semantik birikmalarga birlashtirish, tinglash paytida ularni xotirada saqlash, ehtimollik prognozini amalga oshirish va aloqa holatidan kelib chiqib, idrok etilgan tovush zanjirini tushunish qobiliyatidan iborat.

Gapirish va tinglash og‘zaki nutqning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki muhim ko‘mikmalari hisoblanadi.Tinglash nafaqat xabarni qabul qilish, balki ichki nutqda eshitilgan ma`lumotga javob berishga tayyorgarlikdir. Shunday qilib, ta'limning boshlang'ich bosqichlarida tinglab tushunish ko‘nikmasi nemis tilini o‘rganuvchi talabalar uchun til o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Tinglab tushinish ko‘nikmasini rivojlantirish nemis tili o‘rganuvchilari uchun ham maqsad, ham kuchli o‘rganish vositasidir. Bu o‘rganilayotgan tilning tovush tomonini, uning fonemik tarkibi: ritm, urg'u, ohang va intonatsiyasini o‘zlashtirishga imkon beradi. 2- bosqich talabalari tinglash orqali tilning leksik va uning grammatik xususiyatlarini o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Tinglash real vaqt rejimida amalga oshirilishi kerak, so‘zlovchi tomonidan bildirilgan fikr va aytilayotgan gapni tez tushunish va bu ma'lumotni tezda qayta ishlab javob berish ba`zi til o‘rganuvchi talabalar uchun juda qiyin va stressli faoliyat bo‘lishi mumkin [1,275]. Ushbu maqola nemis tili darslarida tinglashni o‘rgatishning ba'zi kognitiv va muammoli jihatlarini o‘rganish va tahlil

qilishga bag'ishlangan. Chet tilida muloqot qilishni o‘rganish amaliy va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda hal qilinadigan muhim vazifadir. Bizning fikrimizga ko‘ra, bu chet tilini yaxshiroq o‘zlashtirishni kafolatlaydigan kommunikativ yondashuvga yo‘naltirilgan uslublardan biridir, chunki faqat muloqot sharoitida til o‘zining tabiiy funksiyasida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Chet tillarini o‘qitish sohasidagi ko‘plab tilshunoslar, metodistlar tinglash ko‘nikmasini chet tilini o‘rganishda asosiy mahorat deb bilishadi va bu nutq, to‘g'ri talaffuzni o‘rgatishning asosi ekanligiga haqli ravishda ishonishadi. Kommunikativ faoliyatning to‘rt turi orasida tinglash ustuvorligini tan olgan olimlar uni o‘qitishning eng yaxshi,samarali usullarini topishga harakat qilmoqdalar. Shunday qilib, J. S. Noblitt, Morli, E.N,Solovova , N. V. Eluxina, I. A. Zimnyaya, A. S. Luri kabi olimlar tinglash ko‘nikmasini bo‘yicha tadqiqotlar qilib, bu ko‘nikmani izchil o‘rganganlar.

Nemis tili mashg`ulotlarida 2- kurs matematika yo‘nalishi talabalarning xorijiy tilllarni o‘zlashtirish muammolarni aniqlash hamda tinglab tushinish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida mashg`ulotlaridan oldin tanlangan eksperimental va nazorat guruhlari bilan birinchi semestrning boshida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma savollari nemis tilida tinglab tushunish ko‘nikamsi bo‘yicha edi. Ushbu so‘rovnoma 2- kurs talabalari ega bo‘lishi kerak bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni tekshirish maqsadida tanlandi. So‘rovnoma savollar va umumiy ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA


Ushbu tajriba sinovda ishlatilgan vosita so‘rovnomadir. Anketa talabalarning tinglab tushunish qobiliyatlarining til o‘zlashtirishda roli haqidagi tasavvurlari, shuningdek, talabalarning mashg`ulotlar davomida tinglash orqali chet tilini o‘rganishda yuzaga keladigan qiyinchiliklari haqida ma'lumot olish uchun ishlatiladi. So‘rovnoma tinglab tushunishga ta'sir qiluvchi omillar bo‘yicha bir necha adabiyotlarni ko‘rib chiqgandan so‘ng ishlab chiqilgan. So‘rovnoma talabalarning umumiy til o‘rganish tajribasi, tinglash ko‘nikmalarining ahamiyati va ularning nemis tilini tinglash malakasini o‘z-o‘zini baholashi haqida ma'lumot to‘plash uchun ishlatiladigan savollardan iborat. So‘rovnomada (jadval 1) 1 dan 5 gacha bo‘lgan Likert tipidagi shkala qo‘llanildi. Beshta javob varianti: nie, selten, manchmal, meistens und immerdan iborat. Savollarga 1 dan 5 gacha tanlash orqali muammoga qanchalik tez-tez duch kelishlarini ko‘rsatish so‘raladi.

Jadval I

Faktoren im Zusammenhang mit den Lautsprechern

№		nie	selten	manchmal	meistens	immer
	Ich finde es schwierig, die Bedeutung von Wörtern zu verstehen, die nicht klar ausgesprochen werden.					
	Es fällt mir schwer, natürliche Sprache zu verstehen, die voller Zögern und Pausen ist.					
	Ich finde es schwierig, gut zu verstehen, wenn Sprecher zu schnell sprechen.					
	Ich finde es schwierig zu verstehen, wenn Sprecher unterschiedliche Akzente verwenden.					
	Ich finde es schwierig, Audiotext zu verstehen, wenn der Sprecher nicht lange genug pausiert.					
	Es fällt mir schwer, aufgenommenes Material zu verstehen, wenn ich etwas nicht wiederholen kann					

Rasm 1



1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, audiodagi dinamikaga bog'liq omillar yuqori darajada baholanadi. Respondentlarning fikricha, nutqning tez sur'ati ularning tinglab tushunishiga xalaqit beradigan birinchi raqamli omil hisoblanadi. Darhaqiqat, barcha ishtirokchilar ma'ruzachilar tez gapiradigan og'zaki matnlarni tushunish qiyinligini aytishadi. Yetkazib berish tezligidan tashqari, ma'ruzachilarning noaniq talaffuzi va narsalarni takrorlab ikkilanishlari tinglab tushunish muammolarining jiddiy manbalari hisoblanadi. So‘rov natijalari shuni ko‘rsatadiki, ishtirokchilarning 29,4% dan ortig‘i talaffuz tezligi, 23,5 % i noaniq talaffuzi tufayli tinglagan matnni tushuna olmaydi.

So‘rovnoma natijalariga asoslanib, tinglab tushunish muammolarini hal qilish uchun tinglash laboratoriyasi, kompakt disklar, CD-pleerlar va o‘quv xonalari ham o‘rganish, ham tinglash qobiliyatini o‘rgatish sifatiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan bo‘lganligi sababli ular bartaraf etilishi lozim. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, qo‘llaniladigan tinglash materiallari juda qiyin va shuning uchun o‘qituvchilarga ushbu materiallarni talabalarning yoshi, turli xil qiziqishlari, o‘rganish uslublari va qobiliyatlariga moslashtirishi kerak. Xususan, 2-kurs talabalari uchun avvalo o‘qituvchilar nutq tezligi sekinroq bo‘lgan audio yozuvlarni tanlashlari kerak, talabalar ancha malakaliroq bo‘lgandagina, ularning qiyinchilik darajasini oshirish mumkin. Bundan tashqari ushbu so‘rovnomadan ma'lum bo‘lishicha, lug'at boyligining yetarli emasligi tushunish muammolari yuzaga kelishida asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun tinglashdan oldin o‘qituvchilar talabalarni audio yozuvdagi mavzuga oid kalit so‘zlar bilan tanishtirishlari kerak. Buning ko‘plab usullari mavjud, ya`ni talabalarning tinglash kontekstida ishlatiladigan yangi so‘zlarning ma'nosini taxmin qilishni so‘rash orqali lug'at manbalarini faollashtirish tinglash jarayonida ularda notonashi so‘zlar bilan bog`liq muammolarni oldini olishga yordam beradi.

O‘qituvchilar tinglashdan oldin tinglash matnining mazmuni haqidagi asosiy bilimlarni faollashtirishlari kerak. Ular o‘z talabalarini tinglamoqchi bo‘lgan mavzu bo‘yicha avval bilganlarini muhokama qilishga, shuningdek, tinglash matnida nima eshitishlari mumkinligini bashorat qilishga undashlari, shunda talabalar tinglashdan oldin mavzu bilan ko‘proq qiziqib, ijobiy natijalarga erishadilar [8,471].

Nemis tili bo‘yicha 2-kurs matematika yo‘nalishi talabalarining ko‘pchiligiga tinglash strategiyasi va tinglash mahoratini o‘rgatish juda muhim, ular odatda tinglab tushunish vazifalarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Talabalarni nemis tili mashg`ulotlari davomida topshiriqlar, turli mashqlarni bajarishni talab qilishdan oldin ularga tinglash ko‘nikmasi strategiyasi va texnikasini o‘rgatish uchun ko‘proq vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir.

Va nihoyat, talaffuz, nutq, urg'u, jargon va iboralar, grammatik tuzilmalarni o‘z ichiga olgan nemis tili lingvistik bilimlarini bilmaslik, tinglab tushunishdagi muammolarning yetakchi sabablaridandir. Shu sababli, talabalar o‘z darajalariga mos keladigan nemis tilida qo‘shiqlar,

nemis tilida yangiliklar, filmlar, spektakllar, kundalik suhbatlar yoki hikoyalar orqali real audiolarni tinglash orqali va ular yuzasidan topshiriqlar bajarishlari kerak.

XULOSALAR

Yuqorida qayd etilgan dalillardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, talabalarning tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlanitishga to‘sqinlik qiladigan omillarni:

- Ma'ruzachi yoki so‘zlovchi bilan bog'liq bo‘lgan omil nutq tezligini, turli urg'uni, qisqartirilgan shaklni, talaffuz, ikkilanish, pauzalarni;

- O‘qituvchi bilan bog'liq omillar: so‘rash, mustahkamlash, o‘zgartirish, tushuntirish, darsni, o‘quv jarayonini tashkil qilish va guruh yoki individual diqqatni jamlash kabi asosiy o‘qitish omillari;

- Tinglovchi bilan bog'liq bo‘lgan omil - bu asosiy bilimning yetishmasligi, mavzuni yaxshi bilmaslik, grammatikaning yetishmasligi, lingvistik bilimlarning yetishmasligi, tinglash strategiyasining yetishmasligi, psixologik holat, jismoniy muammo va vazifalar;

- Atrof- muhit, shovqin, sifatsiz uskunalarni ishlatish kabi omillar bartaraf etish kerak. Bu omillar nemis tilini o‘zlashtirayotgan talabalarga nafaqat tinglab tushunish,balki barcha til ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga salbiy ta'sir qiladi.

Tinglash tilni o‘zlashtirish uchun rag'batlantiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladigan va talabalarni og'zaki muloqotda o‘zaro aloqada bo‘lishiga yordam beradigan eshitish vositasini ta'minlaydi,shunday ekan o‘quv xonalarida tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid osondan murakkabga yo‘naltirilgan interfaol topshiriqlardan iborat mashg`ulotlar o‘tkazish, nemis tilini o‘rgatish jarayonida yuzaga keladigan tinglab tushunish muammolarini hal qilishga va minimallashtirishga harakat qilish talabalarning til bilishga bo‘lgan munosabatlari va qiziqishlarni ortishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам / Н.Д. Гальскова // Учебное пособие. – М.: Акти-глосса, 2000, 345 с. (Galskova N.D. Modern methods of teaching foreign languages / N.D. Galskova // Textbook. - M: Akti-glossa, 2000, 275)

2. Пассов Е.И., Программа-концепция коммуникативного иноязычного образования, Развитие индивидуальности в диалоге культур, М, Просвещение, 2000,158-172. (Passov E.I., Program-concept of communicative foreign language education, Development of individuality in the dialogue of cultures, M, Education, 2000, 158-172.)

3. Kourimská M., Kettnerová D.; Sprechen, Lesen, Diskutieren; Leda; Praha; 2002, 453.

4. Röche J.; Fremdsprachenerwerb - Fremdsprachendidaktik; UTB basics – A.Francke

5. Solovova E.N. Chet tillarni o‘qitish metodikasi: Ma'ruzalarning asosiy kursi, M., Ta'lim, 2002. – 239b. (Solovova E.N. Methodology of teaching foreign languages: The main course of lectures, M., Education, 2002. P.239)

6. Zimnyaya I.A. Chet tillarni o‘qitishning psixologik jihatlari, M., 1978. – 471b.(Zimnyaya I.A. Psychological aspects of teaching foreign languages, M., 1978. p. 471)